

373
T-18

TOJIBOYEVA GULMIRA RIFOVNA

**BO'LALAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

373

T-18.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOJIBOYEVA GULMIRA RIFOVNA

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH

MONOGRAFIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

CHIRCHIQ-2023

-4702/x-

UO'K 373;378
KBK 74.202.2
T-18

Tojiboyeva G.R. / Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarinig kasbiy kompetentligini rivojlantirish / Monografiya. - Toshkent: «Zebo Prints», 2023. - 128 bet.

Mazkur monografidan maqsad bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanishini ta'minlovchi shaxsiy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, omillari va usullarini o'rganish.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlarga muvofiq kasbiy kompetensiyalarni aniqlash mezonlari kompetensiya tushunchasining tadrijiy rivojlanishini ta'limga oid ilg'or chet el tajribalarini milliy qadriyat, urf-odat va an'analarimizga bilish, tushunish va taqqoslash metodlari orqali konstruktiv moslashtirish asosida aniqlashtirish tizimini o'rganish kabi muammoni yechish imkoninini beradi.

Taqrizchilar:

D.T.Pulatova - XTXMOQTI, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent,

A.Kuchkinov - ChDPU, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Ushbu monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2023 yil 11 noyabrdagi 17 sonli yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-751-56-1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

MUNDARIJA

	Kirish	4
I bob	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy - metodologik asoslari	9
1.1 §	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning konseptual asosi sifatida	9
1.2 §	Kasbiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-pedagogik asoslari.....	24
1.3 §	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibi, mezonlari va darajalari.....	45
II bob	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi va didaktik ta'minoti	56
2.1 §	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	56
2.2 §	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metod, shakl va vositalari.....	70
§ 2.3.	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ishlari samaradorligi ...	80
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	108

KIRISH

Jahonda "global kompetensiya jamiyati"[144]ning paydo bo'lishi ham jahon iqtisodiyotini, ham ta'lim tizimining mavqeini o'zgartirishi qayd etilmoqda. Globalashuvning jadallashuvi va texnologik o'zgarishlar sur'ati tufayli dunyo misli ko'rilmagan – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar bizga insoniyat taraqqiyoti uchun ko'plab yangi imkoniyatlar bermoqda. Ta'lim insoniyatga harakat va maqsad erkinligini, shuningdek, o'z hayotini shakllantirish va boshqalarga bu borada yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni berishi mumkin. Buni qanday qilib eng yaxshi tarzda amalga oshirishni bilish uchun "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) "Ta'lim va malakalarning kelajagi 2030" loyihasi [164] negizida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning samaradorligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning natijasida jahon ta'lim tizimida o'ziga hos yagonalashgan jarayon tarkib topmoqda. Bu borada yangicha yondashuvlarga asoslangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib bormoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatini tizimli ravishda tushunish, nufuzini oshirish, uning milliy va jahon hamjamiyatidagi o'rnini obyektiv baholash, shuningdek, ta'limni yanada isloh qilishga tayyorlik darajasini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar ta'lim muassasalarida innovatsion iqtisodiyot va raqamli jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlovchi inson kapitalini shakllantiruvchi yangicha yondashuvlar asosida ta'lim muhiti yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Taraqqiyotning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan sifatli kasbiy ta'limga sarmoya kiritish strategik masalaga aylanib, u orqali inson kapitalini rivojlantirish doirasida kompetentli o'qituvchilarni tayyorlashga ehtiyoji ortib bormoqda. Bu borada dunyo mamlakatlari tizimida TALIS (Teaching and Learning International Survey), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study), PISA(The Programme for

International Student Assessment), PIRLS(Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro dasturlar asosida milliy va jahon xalqaro ta'lim tajribalarini uyg'unlashtirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining yuksak darajada kasbiy va amaliy kompetensiyalariga ega bo'lishi taqozo etilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan uzluksiz ta'lim tizimini barpo etish maqsadlari belgilandi¹. Bu borada yangi zamonaviy paradigmalar, yondashuvlar negizida milliy kadrlarni tayyorlash, xususan, boshlang'ich ta'lim bilan bog'liq muammolar mutaxassislarining, manfaatdor tomonlarning keng e'tiborini tortmoqda. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[1], 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[2], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[5] farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[6], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[8] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning pedagogik jihatlari R.Sh.Axliddinov, J.G'.Yo'ldoshev, R.H.Jo'rayev, R.B.Yarmatov, N.A.Muslimov, M.B.Urazovalar tomonidan; O.M.Musurmanova, N.N.Karimova, N.M.Egamberdiyeva, S.T.Turg'unovlarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak pedagoglar kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlari; oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ayrim jihatlari Sh.A. Abdullayeva, J.E.Usarov, N.Sh.Jumanova, O.A.Qo'ysinov, A.X.Maxmudov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan R.A.Mavlonova, Sh.Q.Mardonov, B.Ziyamuxammadov, N.S.Sayidaxmedov, M.A.Ochilov, N.Azizxodjaeva kabi olimlarning tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va pedagogikaning zamonaviy paradigmalari muammosi mamlakatimizda R. Safarova, B.Xodjaev, D.D.Sharipova, X.A.Shayxova, G.X.Tillayeva, G.Burxonova, N.Indiaminov, B.Babajanov kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari V.A. Adolf, V.I.Baydenko, V.A.Bolotov, O.M.Bobiyenko, Yu.G.Tatur, A.V.Xutorskoy, K.E.Bezukladnikov, T.G.Braje, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, A.M.Novikov kabi pedagog-olimlarning ilmiy-uslubiy ishlarida; boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi Yu.V.Trofimenko, Ye.V.Maltseva, N.L.Dmitriyeva, M.V.Shustova, T.M.Sorokina, N.V.Kolpakovalar ilmiy izlanishlarida atroflicha muhokama etilgan; A.S.Danilova, L.V.Zankov, N.Nikitina, X. Y. Leyments, V. A. Suxomlinskiy, D. Ye. Elkonin, N. A.Alekseyev, A.G.Asmolov, V. N.Atutov, M.A.Gavrilova, G. K. Selevko, P. F. Kapterev, P.P.Blonskiy, S.T.Shatskiy, Z.I.Vasileva, I.A.Kolesnikova, V.V.Serikov, I.S.Yakimanskayalarning izlanishlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari ilmiy bayon etilgan.

Xorijiy ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati S.Byuler, A.Maslou, K.Rodjers, V.Frankl, N.Robert Uayt, Jon Raven, Noam Xomskiy, Levi Shtraus, Jeykob Moreno, E. Turxart, S. Blemeke, J. Zheng, G. Leman, V. Nike, M. Lyovish, R.

Boyatzis, D. Bartram, V. Xatmacher, Bernxard, V. Bloom, X. Markus va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Xorij olimlaridan Biemans, Wollersheim H.W., Goodman, Kagan, Kraler, G.Lehmann, L.Spenser, E.Terhart, N. Robert Uayt, J.Zheng, J. Erpenbeck, Ayris van Verven, Robert Dj. Koelen, Ellen Yansen, V. Xoffman, An Soxun, I. B. N.Mantra, I. N.Suwandi, N. L.Sukanadi, N. K. W.Astuti & Indrawati global miqyosda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetentligi masalalarini tadqiq etgan. D.Raufelder, K.Drury, D.Jagenow, F.Hoferichter & W.Bukowski (2013), Urshulya Ordon ishlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv psixologik asoslari va tamoyillari ochib berilgan.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlar tahlili shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va unga muvofiq zamonaviy didaktik ta'minot hamda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotning maqsadi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni belgilash mezonlarini aniqlashtirish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, klassifikatsiyalash va differentsiatsiyalash, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, so'rovnoma, test, suhbat, modellashtirish, tashxis,